



TEMIR YO'L KESISHMASIDA VUJUDGA KELADIGAN YO'L TRANSPORT
HODISALARI TAHLILI

Nazarov Anvar Aripovich

Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası t.f.d professori

Shamsiddinov Samariddin Sirojiddin o'g'li

Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchisi

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: *Mazkur ishda temir yo'l kesishmalarida sodir bo'ladigan yo'l-transport hodisalarining asosiy sabablari va ularning oqibatları tahlil qilingan. Temir yo'l kesishmasi navbatchisi, poyezd mashinisti hamda transport vositasi haydovchilarining harakatlari bilan bog'liq xavf omillari yoritilgan*

Kalit so'zlar: *Temir yo'l kesishmasi, yo'l-transport hodisasi, navbatchi xodim, poyezd mashinisti, shlagbaum, signalizatsiya tizimi, haydovchi, chorva mollari, favqulodda tormoz, qoidabuzarlik, transport xavfsizligi, inson omili.*

Ko'p hollarda temir yo'l kesishmasida sodir etiladigan yo'l - transport hodisalariga transport vositasi haydovchisi yoki piyodalar aybdor bo'ladi.

Temir yo'l kesishmasida xavfsiz harakatlanishda navbatchining roli juda muhim hisoblanadi. Avtotransport vositasi va poezdning to'qnashuvi quyidagi ayrim sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin:

- temir yo'l kesishmasi bo'yicha navbatchining transport vositalari harakatini to'xtatishda yoki shlagbaumni tushirish uchun signal berishda kechikib qolishi.

Bu hodisa kamdan – kam sodir bo'ladi, ammo bunday holatlar kam bo'lsada kuzatilib turadi. Qo'riqlanadigan temir yo'l kesishmasi bo'yicha navbatchining uxlab qolishi kuzatilishi yoki uning aybi bilan kesishmadagi svetoforda, shlagbaumda nosozliklar bo'lishi;

- yo'lda ayrim sabablarga ko'ra to'xtab qolgan transport vositalari haqida poezd mashinistiga xabar berishda kechikishi. Bu kesishmada navbatchi xodimning ish joyida bo'lmagani va xavfli vaziyat haqida bilmaganligi uchun sodir bo'ladi;

- temir yo'l kesishmasi bo'yivha navbatchiga bog'liq bolgan shlagbaum va svetofor signallarining o'zaro mos kelmasligi. Masalan; qizil chiroq yoniq va ayni paytda o'tish joyi hali ham ochiq yoki poezd o'tib ketgandan so'ng qizil o'chganida shlagbaum ko'tarilmay qolishi. Kesishma bo'yicha navbatchi xodim haydovchiga ushbu vaziyatda qanday harakat qilish kerakligini tushunishga yordam bermaydi, harakatni tartibga solmaydi.



1.1-rasm. Temir yo‘l kesishmasida avtotransport vositasini bilan bog‘liq yo‘l transport hodisasi.

Ba‘zi hollarda poyezd mashinisti uning ish faoliyatini belgilab beruvchi yo‘riqnomalarni buzgan bo‘lishi mumkin, ya‘ni:

- kerakli joyda tezlikni belgilangan miqdorda 15 km/soatgacha tushirmagan;
- kesishmaga yaqinlashayotgan vaqtda ovozli signalni yoqmagan;
- nabatchi bilan telefon aloqasiga e‘tibor bermagan bo‘lishi;
- temir yo‘l kesishmasi bo‘yicha navbatchi xavf signal buyrug‘ini olganida favqulodda tormozni bosmagan.

Baxtsiz hodisa natijasida og‘ir jarohatlanganlar yoki halok bo‘lganlar bo‘lsa, voqea sodir bo‘lgan bevosita aybdor shaxsga nisbata jinoiy ish ochiladi hamda beldilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Ular mashinst yoki temir yo‘l kesishmasi navbatchisi ham bo‘lishi mumkin. Lekin tashkilot jabrlanganlarning mol-mulki va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni baribir qoplab beradi.

Temir yo‘l kesishmalaridagi yo‘l – transport hodisalar faqatgina avtomobillar bilan emas piyodalar, chorva mollari va boshqa turdagi avariya ham uchrab turadi. Chorva mollar va odamlarni urib ketish avtomobillar harakatlanayotgan joyga nisbatan ko‘p uchramoqda. Shu bilan birga, ularning oqibatlari deyarli har doim halokat bilan tugaydi. Bunday baxtsiz hodisalar uchun kim aybdor yoki aybdor emasligi, yetkazilgan zararni kim qoplab berishi hali hanuz aniq emas. Chunki, voqeaning holatini qayta tiklash juda-juda qiyin hisoblanadi.

Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, transport vositalari haydovchilari tomonidan temir yo‘l kesishmasida sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisasida aybdor bo‘ladilar. Bungga quyidagi sabablarni misol keltirishimiz mumkin:



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- kesishmani kesib o‘tish qoidalarini bilmaslik yoki ularni chetlab o‘tish;
- haydovchi yaqinlashib qolgan poyezdni ko‘rmas qolsa, e‘tiborsizligi tufayli svetofor ishoralarini ko‘rmasa;
- yopila boshlagan yoki allaqachon tushib bo‘lgan shlagbaumni chetlab o‘tib harakatni davom ettirsa;
- taqiqlangan joylarda chorva mollarini haydab ketish jarayonida;
- taqiqlangan spirtli ichimlik ichgan holda avtomobilni boshqarganda va shunga o‘xshash holatlarda.

Respublikamizda xavfli hudud hisoblangan temir yo‘l kesishmasida sodir etilayotgan qoidabuzarliklar va ular natijasida sodir etilayotgan yo‘l transport hodisalari bir necha yillardan buyon jiddiyligicha qolmoqda. Temir yo‘l kesishmasida sodir etilayotgan yo‘l transport hodisalari oqibatida insonlarning o‘lim holatlari yoki tan jarohat olishi, relslar va transport vositasining shikastlanish bilan jiddiy oqibatlarni olib kelmoqda.

2024-yil temir yo‘l kesishmalarida turli xildagi qoida buzarliklar oqibatida yo‘l transport hodisalari va baxtsiz hodisalar kelib chiqmoqda. Respublikamiz miqyosida yil davomida jami 173 ta YTH sodir bo‘lgan, ulardan 78 tasi mollarni urib ketish bilan bog‘liq bo‘lsa, qolgan 95 ta holat transport vositalarini urib ketish, odamlar ishtirokida, to‘siq ichidagi chorva mollar hamda peregonda avtotrasportni urib ketish holatlariga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аҳмедов А., Шарипов А. Yo‘l harakati xavfsizligi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018. – 232 b.
2. Xasanov U., To‘rayev B. Temir yo‘l harakati va uni boshqarish asoslari. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020. – 188 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4567-son. *Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida.* – 2022 yil 15 fevral.
4. www.temiryol.uz – “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rasmiy sayti. Ma’lumotlar oynasi: Temur Malik yo‘l kesishmasi statistikasi va texnik hujjatlar. Murojaat qilingan sana: 2025 yil 10-iyun.
5. www.harakatexavfsizlik.uz – Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha ma’lumotlar portali. Murojaat qilingan sana: 2025 yil 12-iyun.
6. <https://ziyonet.uz>
7. <https://tir.uz>